

## 2021- yilning yanvar-iyun oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, Farg'ona viloyatida jami **3 108,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,5** %ni tashkil



### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'vicha shakllanadi.

Yirik qurilish  
tashkilotlari


8,7

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

68,5

Norasmiy  
sektor

22,8




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **3 458** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **411** taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **112,9** %ga (jami qurilishdagi ulushi **55,4** %), fuqarolik obyektlarini qurish **108,1** %ga (jami qurilishdagi ulushi **10,8** %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,3** %ga (jami qurilishdagi ulushi **33,8** %) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.07.2020- yil	01.07.2021- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3047</b>	<b>3458</b>	<b>113,5</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>809</b>	<b>931</b>	<b>115,1</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>315</b>	<b>342</b>	<b>108,6</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>108</b>	<b>122</b>	<b>113,0</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>305</b>	<b>343</b>	<b>112,5</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>96</b>	<b>116</b>	<b>120,8</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>97</b>	<b>106</b>	<b>109,3</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>162</b>	<b>152</b>	<b>93,8</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>121</b>	<b>131</b>	<b>108,3</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>78</b>	<b>93</b>	<b>119,2</b>
	<b>Quva</b>	<b>134</b>	<b>148</b>	<b>110,4</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>162</b>	<b>191</b>	<b>117,9</b>

	Rishton	67	82	122,4
	So'x	38	66	173,7
	Toshloq	128	141	110,2
	O'zbekiston	78	85	109,0
	Farg'ona	91	109	119,8
	Dang'ara	122	135	110,7
	Furqat	68	79	116,2
	Yozyovon	68	86	126,5


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.07.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,9 %), Marg'ilon (9,9 %) va Qo'qon (9,9 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **270,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,1** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,1** % punktga kamayib, **8,7** %ni tashkil etdi.


### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **21,1 %**i yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **147,7 %.**, Qo'shtepa tumanida jami qurilish ishlari hajmining **14,3 %**i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **50,0 m.**, va So'x tumanida esa jami qurilish ishlari hajmining **0,9 %**i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,0 m.to'g'ri** keldi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,5 %**i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **1,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **107,8 %**ni tashkil etgan holda **2 129,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **80,3** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3027,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,6 %** va **97,4 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,1 %** yoki **1 899,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **243,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,8 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 026,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,0 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **629,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,2 %**ni tashkil etdi.





**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>3 108,0</b>	<b>109,5</b>	<b>1 899,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	688,5	105,9	417,3
Qo'qon	257,7	121,2	143,3
Quvasoy	127,1	103,6	36,9
Marg'ilon	482,2	100,3	350,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	102,3	101,3	36,4
Qo'shtepa	121,4	126,6	96,0
Bag'dod	268,1	130,6	139,3
Buvayda	119,8	163,7	36,4
Beshariq	51,1	118,7	46,7
Quva	113,3	102,1	106,9
Uchko'prik	69,9	99,1	59,5
Rishton	48,8	105,0	27,7
So'x	83,2	119,1	36,3
Toshloq	115,4	100,8	48,3
O'zbekiston	81,6	137,0	69,4
Farg'ona	50,0	75,1	25,5
Dang'ara	173,3	102,5	89,1
Furqat	90,8	136,0	86,9
Yozyovon	63,5	79,7	46,9

\* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari



2020- yil  
Yanvar-iyun



2021- yil  
Yanvar-iyun

*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi*




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,2 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamayib, **64,5 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamayib, **28,3 %**ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,3 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,3 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,3 %** (**9,2 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %** (**0,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.





## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,1 %** punktga kamaydi va **10,2 %**ni tashkil etdi. Qolgan **89,8 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,1 %** punktga



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.  
688,5

Marg'ilon sh.  
482,2

Bag'dod t.  
268,1

Qo'qon sh.  
257,7



*Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (688,5 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (482,2 mlrd. so'm), Bag'dod t. (268,1 mlrd. so'm), hamda Qo'qon sh. (257,7 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.*

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Ijr : O'.Umarov  
Tel.: (73) 249-87-26  
(73)-241-98-42